

OPERATSION XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ("O'ZMILLIYBANK" AJ MISOLIDA)

Axmadjonov Foziljon Komil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

foziljonaxmadjonov2001@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1669568>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola tijorat banklarining moliyaviy boshqaruvi tizimida muhim o'rinn egallovchi operatsion xarajatlar auditni masalasiga bag'ishlangan bo'lib, "O'zmilliybank" AJ misolida mazkur audit faoliyatining holati chuqur tahlil qilinadi.

Operatsion xarajatlar – bu bankning asosiy faoliyatini yuritish bilan bog'liq muntazam ravishda yuzaga keladigan harajatlar bo'lib, ularni aniq va shaffof nazorat qilish bankning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada, bir tomonidan, operatsion xarajatlarning turlari, ularni hujjatlashtirish, tahlil qilish va audit qilish jarayonlari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolar – elektron monitoring tizimlarining yetarli darajada rivojlanmagani, audit xulosalari va natijalari asosida tezkor boshqaruv qarorlarining qabul qilinmasligi, indikatorlarning mavjud emasligi kabi holatlar ochib berilgan. Shuningdek, maqolada operatsion xarajatlar auditni tizimini zamona viy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, bankda ichki audit funksiyasini raqamlashtirish, KPI indikatorlar asosida xarajatlar samaradorligini baholash, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali audit sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: operatsion xarajatlar, audit, ichki audit tizimi, O'zmilliybank, bank xarajatlari, moliyaviy nazorat, raqamli audit, ichki nazorat mexanizmlari, xarajatlarni optimallashtirish, KPI indikatorlari, xalqaro audit standartlari, moliyaviy samaradorlik, risklarni boshqarish, ichki moliyaviy monitoring, avtomatlashtirilgan audit tizimlari.

Abstract. This scientific article is devoted to the issue of audit of operating expenses, which plays an important role in the financial management system of commercial banks, and the state of this audit activity is analyzed in depth using the example of the National Bank of Uzbekistan. Operating expenses are expenses that regularly arise in connection with the main activities of the bank, and their clear and transparent control is an important tool in ensuring the financial stability and efficiency of the bank. On the one hand, the article covers the types of operating expenses, the processes of their documentation, analysis and audit, and on the other hand, it reveals the current problems encountered in practice - the insufficient development of electronic monitoring systems, the failure to make prompt management decisions based on audit conclusions and results, and the lack of indicators. The article also develops scientifically based proposals and recommendations for improving the operating expense audit system based on modern requirements. In particular, the possibilities of digitizing the internal audit function in the bank, assessing cost efficiency based on KPI indicators, improving the skills of auditors and using international experience are considered.

Keywords: operating expenses, audit, internal audit system, National Bank of Uzbekistan, bank expenses, financial control, digital audit, internal control mechanisms, cost optimization,

KPI indicators, international audit standards, financial efficiency, risk management, internal financial monitoring, automated audit systems.

Kirish. Mamlakatimiz bank tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmini oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Shu bilan birga, banklarda xarajatlarni to‘g‘ri boshqarish va ularni audit qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, operatsion xarajatlarning tuzilmasini chuqur o‘rganish, ularning shakllanish manbalarini tahlil qilish va ularni nazorat ostida ushlab turish banklarning umumiy moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Operatsion xarajatlarni bank faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, ular boshqaruv, xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari, ishchi kuchi bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Bu xarajatlarni ko‘pincha doimiy va barqaror bo‘lib, noto‘g‘ri boshqarilganda moliyaviy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aynan shu sababli, ularni samarali audit qilish bank ichki nazorat tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Audit esa nafaqat mavjud xarajatlarni huquqiy jihatdan asoslanganligini tekshiradi, balki ular qanchalik samarali sarflanayotganini ham baholaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Operatsion xarajatlarni auditi va ularni boshqarish masalalari O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan so‘nggi yillarda muntazam tahlil qilinmoqda.

Jumladan, Axmedova N.G. (2020) o‘z tadqiqotlarida tijorat banklarida xarajatlarni rejalashtirish, ularni hujjatlashtirish va nazorat qilish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratgan.

Muallif operatsion xarajatlarni moliyaviy menejment tizimining asosiy elementi deb biladi va ushbu xarajatlarni audit natijalariga asoslangan holda optimallashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv bank resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Abduraxmanova G.G. (2022) esa banklarda ichki audit tizimining shakllanish bosqichlari, raqamli nazorat vositalarining joriy etilishi va ularning samaradorlikka ta’siri bo‘yicha izlanish olib borgan. Muallif operatsion xarajatlarni ustidan real vaqtli monitoring mexanizmlarining joriy etilishi zarurligini asoslab beradi. Bu g‘oya zamonaviy auditni raqamlashtirish va avtomatlashtirish tendensiyalari bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, Toshpulatova D.X. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davlat moliya institutlarida xarajatlarni indikatorlar asosida baholash tizimini ilgari surgan. U banklardagi amaliyotga mos yondashuvlarni taklif qilib, O‘zmilliyybank singari yirik moliyaviy muassasalarda audit sifatini oshirishga qaratilgan metodologiyani taklif qiladi.

Rossiyalik olimlar esa asosan bank auditining tizimli yondashuvlarini ishlab chiqqanlar.

Masalan, Волкова О.Н. (2019) o‘zining “Внутренний аудит и управлеченческий контроль” asarida tijorat banklarida ichki auditning asosiy funksiyalari, jumladan operatsion xarajatlarni kamaytirishdagi rolini tahlil qilgan. U nazorat ko‘rsatkichlari (KPI) asosida audit tizimini baholash mexanizmini ishlab chiqqan bo‘lib, bu orqali xarajatlarni tartibga solish samaradorligini oshirish mumkin. Гречаная И.Г. (2021) esa operatsion xarajatlarni ustidan elektron audit tizimlari orqali nazorat qilish g‘oyasini ilgari suradi.

Muallif ISO 19011 va Basel talablarini bank amaliyotiga integratsiya qilish orqali audit sifatini yangi bosqichga olib chiqishni taklif etadi.

Yevropa olimlari orasida Peter Walton (2018)ning izlanishlari ajralib turadi. U Yevropa moliyaviy audit standartlarining bank sektorida qo'llanilishi, xususan operatsion xarajatlarni tekshirish metodologiyalarini taqqoslab o'rganadi. Walton o'z tadqiqotlarida audit departamentlarining ichki nazoratdagi o'rni va ularning strategik ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Uning ishlari xalqaro amaliyotlar asosida O'zbekiston bank tizimida audit mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Banklarda operatsion xarajatlarni nazorat qilishda ichki boshqaruv tuzilmasi va audit departamenti o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik muhim o'rinni tutadi. Anna Samsonova-Taddei (2020) Italiya bank tizimi misolida o'z tadqiqotida aynan ushbu muammoni tahlil qilib, ichki audit xizmatining korporativ boshqaruv organlari bilan faol hamkorligi samarali xarajat boshqaruvining asosiy omili ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, strategik darajadagi nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali bank xarajatlarining shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Osiyo mintaqasidagi banklar amaliyoti ham operatsion xarajatlar auditini bo'yicha muhim nazariy yondashuvlarni taklif qilmoqda. Jumladan, Hiroshi Okuda (Yaponiya, 2021) tomonidan ishlab chiqilgan statistik modellar orqali operatsion xarajatlar va bank rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. U xarajat monitoringida ko'rsatkichlar tizimi (performance metrics) asosida avtomatlashtirilgan tahlil usullarini joriy etishni ilgari suradi. Shunji Umetani (Yaponiya, 2017) esa ichki auditning raqamli transformatsiyasi, xususan, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalarning joriy etilishi orqali operatsion xarajatlar nazoratini takomillashtirish mumkinligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Bu yondashuv banklarda audit funksiyalarini an'anaviy shakldan innovatsion platformalarga o'tkazish g'oyasini ilgari suradi.

AQShlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar operatsion xarajatlar va moliyaviy hisobotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur o'rganishga qaratilgan. Mary E. Barth (2019) audit faoliyatining moliyaviy shaffoflikka ta'sirini o'rgangan bo'lib, u operatsion xarajatlar hisobotlari orqali investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladigan vositalarni taklif etadi. U bank auditida sifatli axborot taqdimoti orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini isbotlagan. Shu bilan birga, Lawrence Revsine (2022) "Financial Reporting and Analysis" asarida buxgalteriya nazorati va xarajatlar auditini o'rtasidagi metodologik uzviylikni chuqur tahlil qiladi. U samarali boshqaruv qarorlari faqat aniq va ishonchli audit asosida shakllanishi mumkinligini nazariy asosda bayon etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni audit amaliyotiga joriy etish bo'yicha John C. Robertson (2023)ning ishlari alohida e'tiborga loyiq. U audit jarayonlarining raqamli transformatsiyasi, ERP tizimlari va sun'iy intellekt algoritmlarining audit tahlilida qo'llanishini keng yoritgan. Ayniqsa, operatsion xarajatlar ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari orqali xatoliklar va ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish yo'llarini taklif etadi. Robertsonning yondashuvlari audit jarayonini tez, aniq va yuqori texnologiyalarga asoslangan holda olib borishga qaratilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida aniqlanishicha, operatsion xarajatlar auditini nafaqat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, balki bank faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishda ham muhim o'rinni tutadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar asosan xarajatlarni nazorat qilish va indikatorlar asosida baholash tizimini taklif etgan bo'lsa, xorijiy mualliflar – ayniqsa Rossiya, Yevropa, Osiyo va

AQSh olimlari – operatsion xarajatlar auditining avtomatlashtirilgan, raqamli va strategik boshqaruv bilan integratsiyalashgan shakllarini chuqr o'rganganlar. Jumladan, sun'iy intellekt, ERP tizimlari, real vaqtli monitoring va ISO hamda Basel standartlaridan foydalanish banklar faoliyatida audit sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkinligi ta'kidlangan. Xalqaro ilmiy yondashuvlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, operatsion xarajatlarni samarali boshqarish va ularning auditini takomillashtirish uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur: bunda an'anaviy ichki audit nazoratlari bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, raqamli tizimlar va samaradorlik ko'rsatkichlari uyg'un qo'llanilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, "O'zmilliybank" kabi yirik moliyaviy institutlar uchun dolzarb va strategik ahamiyatga ega bo'lган masaladir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda operatsion xarajatlar auditini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashgan holda qo'llanildi.

Dastlab, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, operatsion xarajatlar, audit tizimi, ichki nazorat, raqamlashtirish va samaradorlik indikatorlari bilan bog'liq asosiy nazariy yondashuvlar o'rganildi. Kontseptual yondashuv sifatida tizimli tahlil usuli tanlandi, bu orqali operatsion xarajatlar auditni tarkibiy qismalgarda ajratilib baholandi. Shuningdek, auditning funksional roli va u bilan bog'liq ichki boshqaruv elementlari o'rtaqidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Tadqiqotning empirik asosini "O'zmilliybank" AJning 2020–2023 yillardagi moliyaviy hisobotlari, audit xulosalari va ichki reglamentlari tashkil etdi. Amaliy tahlil jarayonida komparativ (taqqoslov) usulidan foydalangan holda O'zbekiston va boshqa davlatlar banklarining operatsion xarajatlarni boshqarish tajribalari solishtirildi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli asosida bank auditiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar (ISA, Basel, ISO 19011) va ichki audit siyosatlari o'rganildi. Bu usul orqali auditda qo'llanilayotgan indikatorlar va ularning samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda statistik tahlil ham qo'llanilib, operatsion xarajatlar dinamikasi va ularning bank rentabelligiga ta'siri regressiya modellar orqali aniqlangan. Ilmiy asoslangan holda baholash uchun grafik usullar, jadvallar va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, muammo-yechim yondashuvi orqali mavjud auditdagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqildi. Natijada, operatsion xarajatlar auditining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif etilgan model nazariy va amaliy asoslangan xulosalar bilan boyitildi.

Tahlil va natijalar. Operatsion xarajatlar auditni moliyaviy nazoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bank resurslarining qayerga va qanday sarflanayotganini aniqlashga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, 2021–2024 yillar davomida boshqaruv, ma'muriy va xizmat ko'rsatish xarajatlari bank faoliyatining barqaror va doimiy ortib boruvchi segmenti sifatida namoyon bo'lган. 2021 yilda umumiy operatsion xarajatlar 624,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 931,2 mlrd so'mga yetgan. Ayniqsa, xizmatlar uchun to'lovlar, amortizatsiya xarajatlari va ma'muriy xarajatlar eng yirik ulushni egallagan. Bu xarajatlarning o'sish tendensiyasi xarajatlarni audit qilish va tahlil qilishda batafsil nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Operatsion xarajatlar tarkibi (2021–2024, mln so'mda)

Yil	Boshqaruv va ma'muriy xarajatlar	Xizmatlar uchun to'lovlar	Amortizatsiya va eskirish	Jami operatsion xarajatlar
2021	213 100	189 300	222 100	624 500
2022	248 400	204 900	235 600	688 900
2023	278 200	235 700	254 300	768 200
2024	321 800	269 000	340 400	931 200

Manba: <https://nbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi>.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, eng keskin o'sish amortizatsiya va eskirish xarajatlarida kuzatilgan bo'lib, bu texnik infratuzilma va IT platformalarga sarmoyalar hajmining ortib borayotganini anglatadi. Shuningdek, xizmatlar uchun to'lovlar ham yildan-yilga barqaror o'smoqda, bu esa tashqi pudratchilar va texnik xizmatlar bilan tuzilgan shartnomalar hajmining kengayganligini ko'rsatadi. Ana shu xarajat segmentlari bo'yicha audit nazoratini kuchaytirish operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bankda amalga oshirilgan ichki audit faoliyati va unga ajratilgan xarajatlar tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Audit bilan bog'liq xarajatlar 2021 yildagi 2,7 mlrd so'mdan 2024 yilda 4,2 mlrd so'mga yetgan. Bu audit jarayonlari hajmining kengayganini, audit bo'limi roli va texnologik ta'minotining mustahkamlanayotganini bildiradi. Biroq audit xarajatlarining umumiyligi operatsion xarajatlarga nisbati 0,43% atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich juda kam, demak auditga ajratilayotgan resurslar hali yetarli emas.

1-jadval

Audit xarajatlari va ulushi (2021–2024)

Yil	Audit xarajatlari (mln so'm)	Jami operatsion xarajatlardagi ulushi (%)
2021	2 700	0,43%
2022	3 100	0,45%
2023	3 600	0,47%
2024	4 200	0,45%

Manba: <https://nbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi>.

Yuqorida jadvalga ko'ra, ichki audit xarajatlari sezilarli darajada o'sayotgan bo'lsa-da, ularning umumiyligi xarajatlardagi ulushi katta farq qilmayapti. Bu esa audit faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va sifat jihatdan yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Audit ko'lalimi kengaytirish, riskka asoslangan yondashuvni kuchaytirish, raqamli audit vositalarini keng joriy etish orqali operatsion xarajatlarni samaraliroq nazorat qilish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, operatsion xarajatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatining xarajatlar segmentida o'sish jarayoni davom etmoqda va bu o'sish asosan texnologik modernizatsiya, tashqi xizmatlar va boshqaruv xarajatlari hisobiga yuz bermoqda. Ushbu xarajatlarning doimiy auditi va monitoringi orqali foyda marjasini saqlab qolish, resurslardan unumli foydalanish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Muhokama: Birinchidan, tahlil qilingan so'ngi yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlar O'zmilliybankda operatsion xarajatlar hajmi yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatadi.

Bu o'sish asosan boshqaruv va ma'muriy xarajatlar, xizmatlar uchun to'lovlar hamda amortizatsiya xarajatlari segmentlarida namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, ushbu xarajatlarni ichki audit nuqtai nazaridan doimiy ravishda monitoring qilish zarur. Ayniqsa, audit doirasida

xarajatlar samaradorligini (ya’ni natijadorlik darajasini) baholovchi ko‘rsatkichlar (KPI, cost-efficiency ratio) joriy etilishi tavsiya etiladi. Buning natijasida xarajatlarning qaysi turi yuqori, lekin natijasi past ekanligi aniqlanib, audit xulosalari orqali bunday sarf-xarajatlar optimallashtirilishi mumkin.

Ichki audit faoliyatining o‘ziga xos ko‘rsatkichi bo‘lgan audit xarajatlari tahlili bankda audit jarayonlariga yetarli darajada e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi, biroq bu e’tibor audit sifati bilan ta’milanmas ekan, raqamlar o‘z-o‘zicha natija bermaydi. 2024 yilda operatsion xarajatlar umumiy hajmining atigi 0,45 foizi ichki audit faoliyatiga ajratilgan. Bu esa shuni anglatadiki, audit jarayoni moliyalashtirish bo‘yicha cheklangan va keng qamrovli tahlil olib borish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli audit byudjeti qayta ko‘rib chiqilishi, zamonaviy texnologiyalar (masalan, sun’iy intellekt, ERP tizimlari) uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdori oshirilishi lozim.

Mavjud audit faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, audit faqatgina raqamlar ustidan nazorat emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida qaralishi kerak. Bu degani, audit faqat yillik hisobotdagi muvofiqlikni tekshirish emas, balki xarajatlar ichida “iqtisodiy oqilona sarf” prinsiplariga amal qilinishini baholashi lozim. Misol uchun, xizmatlar uchun to‘lovlar yoki tashqi konsultatsiya xarajatlarining ortishi — auditni nafaqat moliyaviy, balki funksional tahlil darajasiga olib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun auditorlar xarajatlar samaradorligini ko‘rsatuvchi ichki indikatorlar tizimini ishlab chiqib, ushbu ko‘rsatkichlar asosida audit xulosalarini tayyorlashi kerak.

O‘zmilliybankda operatsion xarajatlar ustidan raqamli nazorat tizimlarini joriy etish bo‘yicha imkoniyatlar mavjudligi kuzatilmoxda. Bu esa audit faoliyatini avtomatlashtirish imkonini beradi. Masalan, xarajatlarni toifalab aniqlovchi dasturlar, avtomatik reporting vositalari va real vaqtli monitoring tizimlari orqali ortiqcha xarajatlar, takrorlanuvchi xarajatlar yoki noto‘g‘ri sarflar avtomatik ravishda aniqlanishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, audit tizimini “orqadan tekshiruvchi” pozitsiyadan “oldini oluvchi” profilaktik rolga o‘tkazadi.

Xalqaro tajribalar asosida taklif etish mumkinki, audit xizmatining mustaqilligini ta’minalash, boshqaruvdan mustaqil holatda ishlovchi ichki audit qo‘mitasini tashkil etish orqali audit sifati va ob’ektivligi oshadi. Hozirgi sharoitda ichki auditlar ko‘pincha moliyaviy hisobotni to‘g‘ri tuzilganligini tekshiruvchi vosita sifatida ishlatilmoxda, biroq global amaliyotda ular biznes jarayonlar samaradorligi, moliyaviy strategiya natijalari, va xarajatlar oqilona boshqarilayotganlik darjasini ustidan tahlil olib boradi. Shunday ekan, O‘zmilliybank misolida auditning qamrovini kengaytirish, strategik moliyaviy monitoring vositasiga aylantirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minalash va foydalilikni oshirishga erishish mumkin.

Xulosa. O‘zmilliybank misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘ngi yillar davomida bankning operatsion xarajatlari barqaror ravishda oshib borgan bo‘lib, bu jarayon boshqaruv xarajatlari, xizmat ko‘rsatish xarajatlari va amortizatsiya xarajatlarining keskin ko‘payishi bilan bog‘liq.

Ushbu xarajatlarni samarali nazorat qilish va optimallashtirish uchun audit jarayonlarining roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Afsuski, audit faoliyatiga ajratilgan mablag‘lar umumiy xarajatlar fonida ancha past bo‘lib qolmoqda, bu esa audit imkoniyatlarini cheklaydi.

Amaldagi audit amaliyoti ko‘proq formal va hisobotga yo‘naltirilgan bo‘lib, strategik moliyaviy nazorat vazifasini to‘liq bajarmayapti. Operatsion xarajatlar audit tizimini takomillashtirish uchun ularning monitoringi raqamli platformalarga asoslanishi, audit indikatorlari (KPI) va xarajat samaradorlik ko‘rsatkichlari joriy etilishi lozim. Ichki audit xizmati boshqaruvdan nisbatan mustaqil bo‘lishi, faoliyati esa nafaqat hujjatlarda, balki real operatsion jarayonlarda samara keltiradigan tahlillarga asoslanishi kerak. Audit byudjetini ko‘paytirish, sun’iy intellekt va ERP kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zmilliyybankda auditning strategik ahamiyati oshadi va bu orqali bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi resurslar yanada oqilona boshqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedova N.G. (2020). Tijorat banklarida xarajatlarni rejalashtirish va audit mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim jurnali.
2. Abduraxmanova G.G. (2022). Banklarda ichki audit tizimini raqamlashtirish: holat va takliflar. “Moliyaviy nazorat” ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.
3. Toshpulatova D.X. (2023). Davlat moliya institutlarida xarajatlar monitoringi tizimi. “Bank ishi va innovatsiyalar” jurnali, №2, 66–74-betlar.
4. Волкова О.Н. (2019). Внутренний аудит и управленческий контроль в коммерческих банках. Москва: Финансы и статистика.
5. Гречаная И.Г. (2021). Электронный аудит и ISO-стандарты в банковской сфере. Журнал “Бухгалтерский учет и аудит”, №4, 35–42.
6. Peter Walton (2018). European Financial Reporting: A Strategic Approach. London: Routledge.
7. Anna Samsonova-Taddei (2020). Corporate Governance and Audit Committees in European Banks. Journal of International Accounting Research, Vol. 19(2), pp. 55–74.
8. Hiroshi Okuda (2021). Cost Monitoring and Audit Innovation in Japanese Banks. Asia-Pacific Journal of Accounting & Economics, Vol. 28(1), pp. 89–103.
9. Shunji Umetani (2017). Digital Transformation of Internal Audit in Japan’s Financial Sector. Journal of Financial Regulation and Compliance, Vol. 25(4), pp. 412–426.
10. Mary E. Barth (2019). Transparency in Financial Reporting and the Role of Auditing. Stanford Business School Working Paper Series.
11. Lawrence Revsine (2022). Financial Reporting and Analysis (7th Edition). New York: McGraw-Hill Education.
12. John C. Robertson (2023). Artificial Intelligence and ERP in Internal Auditing. Journal of Accounting and Emerging Technologies, Vol. 6(1), pp. 14–29.
13. OECD (2020). Auditing in the Digital Age: Global Best Practices. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
14. <https://nbu.uz>
15. <https://cbu.uz>
16. <https://finlit.uz>